

**Mahmudxo‘ja Behbudiy maqollarining mavzu ko‘lami va g‘oyaviy
yo‘nalishi: "Padarkush" dramasi misolida**

Saparboyeva Zamira Oybek qizi

Urganch davlat universiteti Adabiyotshunoslik: o‘zbek adabiyoti)
mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodida millatni uyg‘otish, ma‘rifat orqali jamiyatni isloh qilish “Padarkush” dramasi va maqolalar timsolida tahlil qilinadi. “Padarkush” dramasidagi badiiy obrazlar izohga toriladi, jadid maqolalari bilan qiyoslab o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: jadid, Turkiston, ma‘rifatchilik, eski maktablar, dunyoviy ilmlar, Toshmurod, Domla, Ziyoli, Tangriqul.

Аннотация: В данной статье анализируются вопросы пробуждения нации и реформирования общества через просвещение в творчестве Махмудходжи Бехбуди на примере драмы «Падаркуш» и его публицистических статей. Рассматриваются художественные образы драмы и проводится их сравнительный анализ с джадидскими статьями.

Ключевые слова: Джадидизм, Туркестан, просветительство, старые школы, светские науки, Тошмурод, Домла, Зиёли, Тангрикул.

Abstract: This article analyzes the issues of national awakening and social reform through enlightenment in the works of Mahmudkhoja Behbudi, based on the drama “Padarkush” and his journalistic articles. The artistic characters of the drama are interpreted and comparatively studied alongside Jadid writings.

Keywords: Jadidism, Turkestan, enlightenment, traditional schools, secular sciences, Toshmurod, Domla, Ziyoli, Tangriqul.

Kirish. Mahmudxo‘ja Behbudi tariximizning g‘oyat og‘ir va murakkab bir davrida yashagan, Turkiston diyorining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan yirik vakillaridan biri edi. U yangi zamon madaniyatining asoschisi edi. Mamlakatni parokandalik, ichki nizolar, milliy ongsizlik va qaramlikdan olib chiqish, avlodlarni erk va ozodlik ruhida tarbiyalash, ma‘rifat va taraqqiyotga boshlash jadidlar nomi bilan tarixga kirgan Behbudi boshliq fidoyilar zimmasiga tushdi. Jadidlar xalqni faqat ilm bilan yorug‘likka olib chiqish mumkin deb hisoblardilar. Dastlab ishni yangi maktablar, teatr va maorifga qaratdilar. “Usuli jadid” va “Usuli savtiya” nomlari bilan shuhrat topgan yangi maktabni tashkil qildilar.

Asosiy qism: Mahmudxo‘ja Behbudi ana shunday jadidlar orasida o‘z o‘rniga ega, fidoyi ma‘rifatparvardir. Jadidlar faqat yangi usul maktablari bilan kifoyalanib qola olmasdilar. Ularga millat va Vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh etib turadigan oyna kerak edi. Toki unda xalq o‘zining qabohatini ham malohatini ham ko‘ra olsun. Mana shu ehtiyojlar Behbudiyni teatr va matbuot sari yetakladi. “Padarkush” dramasi ham shu tariqa maydonga keldi. Butun jadidlar shu jumladan Behbudi ham xalqni ilm, ma‘rifat, ziyo bilan yorug‘likka olib chiqish mumkin deb hisoblaydilar. O‘z haq-huquqlarini, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni tushungan xalqni hech qanaqasiga qaram qilib, boshqarib bo‘lmaydi. Shuni yaxshi tushungan jadidlar yangi usul maktablarini, yangi darsliklarni, matbuot va maorifni rivojlantirishga harakat qildilar. Dramalar, pyesalar, sahna asarlari orqali ham xalqni ogohlikka chaqirdilar.

Mahmudxo‘ja Behbudi ham “Padarkush” dramasini ogohlikka chorlovchi asar sifatida dunyoga keltirdi. E’tibor beradigan bo‘lsak sarlavhada ham “Padarkush” yoxud o‘qimagan bolaning holi nomli mavzu bilan boshlangan. Dramada Boy, uning o‘g‘li Toshmurod, Domla, Ziyoli va Tangriqul obrazlari bor. Asar Boy ta‘rifi bilan boshlanadi. O‘sha davr nuqtai nazaridan hamma narsani hal qilsa bo‘ladi faqat soqqa bo‘lsa bas deb hisoblaydigan Boy singari yuqori tabaqa vakillari farzandlariga ilm-ma‘rifat emas ko‘ngilxushlik, kayf-u safoga yo‘l ochib beradilar. Ular ilm-o‘rganish va ma‘rifat tushunchalaridan yiroq ammo zamonasining taniqli boylaridan edilar. Asarda asosiy

obrazlar sifatida Domla va Ziyoli obrazlari ham bor. Domla Boyga farzandingizga ilm o'rgating, o'qiting, o'qimoq barcha musulmonlarga xos deya farzandini to'g'ri yo'lga boshlaganda boy uni eshitishni ham istamaydi. So'ngra Ziyoli obrazi asarga kirib keladi. Boy uni dunyoviy ilmlarni bilgani uchun hurmat qilardi. Ziyoli ham unga farzandiga diniy va dunyoviy ilmlarni o'rgatishni maslahat beradi. Boy uni eshitishni ham xohlamaydi va xatto mudray boshlaydi. Ziyoli xafsalasi pir bo'lib chiqib ketadi. Boyning ishongan o'g'li, faxri Toshmurod. U faqat kayf-u safo bilan band, ilmsiz, ma'rifatdan yiroq 15 yoshlar chamasi bir o'spirin. U hech narsani o'ylamaydi, kayfi chog' bo'lsa, istagan narsasi muyassar bo'lsa bo'ldi. Asarga pivaxona ham bekorga kiritilmagan. O'sha davrning kirli va qora taraflarini ochib berish maqsadida kiritilgan. Boyning o'g'li ham vaqtini shunday joylarda o'tkazardi. Va aynan shu joyda ko'nglini xushlash uchun pul kerak bo'lib, otasining qotiliga aylanadi. Tangriqul uning do'sti, boyning qotili. Bir lahzalik ko'ngilxushlik, kayf-u safo uchun otasini o'ldirgan Toshmurod-padarkush, qonga belanib yotgan otasini ko'rib ham pinagini buzmasdan qonli pichoqni bir chetga otib, pivaxonaga borib hamyondagi pullarni sanaydilar. Ammo bu yerda na Toshmurod va na Tangriqul aybdor emaslar. Jamiyat ularni shunday tarbiyaladi, ota-onasi ularni shunday muhitda katta qildi. Ziyoli va Domla Boyga qancha tushuntirsalar ham, to'g'ri yo'lga da'vat etsalar ham Boy ularni tinglamadi, eshitishni ham xohlamadi. Natijada o'zining ilmsizligi, ongsizligi va ma'rifatsizligi o'g'lining padarkush bo'lishiga olib keldi. Behbudiy buni bir oila misolida tasvirlagan ammo butun millat ana shunday yashayotgani, ilmsizlik botqog'iga botayotganligini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Ilmsiz va ma'rifatsiz avlodning yakuni, oqibati shudir.

Mahmudxo'ja Behbudiy nafaqat bu dramasida, balki matbuotda ham maqolalar yozib, ma'rifat targ'ibotchisi sifatida xalqni uyg'onishga, ilm-ma'rifatga intilishga chorlaydi, jamiyatni jaholat va qoloqlikdan qutqarish yo'lida fidoyilik bilan kurashgan buyuk ma'rifatparvar sifatida namoyon bo'ladi. Uning barcha maqolalarida ilmga intilish, ma'rifatparvarlik, diniy va dunyoviy ilmlar, til bilish g'oyalari yetakchidir.

Jumladan, “Ikki emas, to‘rt til lozim” maqolasida Behbudiy yoshlarni til bilishga targ‘ib etadi. “Turkistonliklarga turkiy, forsiy, arabiy va rusiy bilmoq lozimdur. Turkiy ya’ni o‘zbekiyning sababi Turkiston xalqining aksari o‘zbekiydir. Forsiy bo‘lsa madrasa va udabo tilidir. Turkistondagi eski va yangi maktablarda forsiy nazm va nasr kitoblari mavjud. Arabiy til esa din uchun lozimdir. Rusiy esa tiriklik va dunyo uchun kerakdir” deb ta’kidlaydi.

Yoki yana bir “Yoshlarg‘a murojaat” maqolasida ko‘radigan bo‘lsak, unda ham yoshlarni zamonaviy, diniy va dunyoviy ilmlarga targ‘ib qiladi. Og‘ir mehnat qilib oz haq oladigan o‘zlarimiznikilar va oz mehnat qilib ko‘p haq oladigan rusiylarni solishtirdi. Chunki ular zamonviy ilmlardan xabardor deydi. Ular bizni boshqaradilar, bizning qo‘limizda ishlamaydilar, ishlatadilar deydi adib. Siz ham uy sotib farzandingizga to‘y qilganday, uy sotib farzandingizni o‘qitganingizda edi hozir qanday rivojlangan millatda yashayotgan bo‘lar edik deya maqolni yakunlaydi.

Yana “Ehtiyoji millat” nomli maqolasida dunyoda turmoq uchun diniy fan va ilm lozimdir deydi. Behbudiy avval ya’ni zamoni sobiqda faqat shariat bilmoq kifoya etardi, endi qonun va zakunni bilmoq ham lozimdir deb tushuntiradi. Boshqa millatlarning boylari yangi maktablar, faqir va yetimlarning o‘qimog‘i uchun vaqf (stipendiya)lar tayin qilgan bir paytda biznikilar juft oila, arobasi ila to‘yi va ... la faxr etarlar. Xatto o‘z o‘g‘lini o‘qitmaydigan boylar ham borligidan afsuslanadi. “Bu ketishni oxiri yomondur, o‘qumoq, o‘qutmoq kerakdur. Bolalarga otalardan ilmi diniy va ilmi zamonaviy meros qolsun”. Boylar g‘ayrat qilib sarmoya kiritisa, yangi maktablar bunyod bo‘lur va bunda yilinda yuzlab yoshlar ilmi bo‘lur deydi. Ammo bularni tushunadigan boylar bizda yetishganmi deya savol bilan yakunlaydi.

Xulosa. Mahmudxo‘ja Behbudiyning dramaturgiya va publitsistika sohasidagi faoliyati yagona maqsad — millatni jaholatdan chiqarib, uni ilm va tafakkur orqali uyg‘otishga qaratilgan edi. Uning “Padarkush” dramasida ifodalangan fojea aslida bir oilaning emas, balki butun jamiyatning ma’naviy tanazzulini aks ettiradi. Shu bilan birga, maqolalarida ilgari surilgan til o‘rganish, zamonaviy va diniy bilimlarni egallash, yoshlarni

ongli va faol shaxs sifatida tarbiyalash g'oyalari milliy uyg'onishning muhim nazariy asosini tashkil etadi. Behbudiy merosi shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyoti bevosita ilmfan, ma'rifat va ongli avlod bilan bog'liqdir. U ilgari surgan fikrlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, har bir avlod uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Demak, Behbudiy asarlari va maqolalari nafaqat o'z davrining mahsuli, balki kelajak avlodni komillikka yetaklovchi muhim ma'naviy manbadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Behbudiy, Mahmudxo'ja. Tanlangan asarlar. – Toshkent: "Nashriyot", 1999.
2. Behbudiy, Mahmudxo'ja. Padarkush dramasi. – Elektron manba: www.ziyouz.com kutubxonasi.
3. Karimov, Naim. Mahmudxo'ja Behbudiy. – Toshkent, 2010.
4. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2001.
5. Mahmudxo'ja Behbudiyning milliy g'oya targ'ibotidagi ahamiyati. – Toshkent, 2014.
6. Turg'unov, D. Mahmudxo'ja Behbudiy — o'zbek ma'rifatchilik harakatining yetakchi namoyondasi. – Toshkent: Tadqiqotlar jurnali, 2025. Journalss
7. Xalimboyeva, B. D. Mahmudxo'ja Behbudiy ijodining pedagogik va ma'naviy qirralari. – Andijon: Science and Education, 2026. openscience.uz
8. Mirzoyeva, N., Abdisamatov, O. Mahmudxo'ja Behbudiy merosi va jadid maktablari. – Toshkent, 2024.